

## TRITIKALE NAVLARINING BIOMETRIK KO'RSATKICHLARIGA EKISH MUDDATLARINING TA'SIRI

**Maftuna Mashrabovna Raimqulova**

**Burxon Sobirovich Avutxonov**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

[almum76@mail.ru](mailto:almum76@mail.ru)

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Samarqand viloyati sharoitida yetishtirilgan tritikale navlarining biometrik ko'rsatkichlariga ekish muddatlarining ta'siri bo'yicha olingan ma'lumotlar keltirilgan. Samarqand viloyati sharoitida ekilgan tritikale navlari yigirmanchi oktabrda ekilganlarini biometrik ko'rsatkichlari yuqori natija berishi. Tritikale navlari orasida Valentin navi donining yirikligi, yashil massasi ko'pligi bilan ham boshqa navlardan farq qilishi aniqlangan.*

***Kalit so'zlar:** Tritikale, navlar, yetishtirish, biometrik ko'rsatkichlar, ekish muddatalari.*

***Abstract:** This article presents the information obtained on the effect of planting dates on the biometric indicators of triticale varieties grown in the conditions of Samarkand region. Biometric indicators of triticale varieties planted in the conditions of Samarkand region are those planted on the 20th of October. Among the triticale varieties, it was found that the Valentine variety differs from other varieties in terms of its grain size and green mass.*

***Key words:** Triticale, varieties, cultivation, biometric indicators, planting dates.*

**KIRISH.** Bugungi kunda dunyo aholisini ko'p qismi oziq-ovqat yetishmasligi bilan qiynalmoqda. Ayniqsa oqsil yetishmasligi bolalar o'rtasida keng tarqalgan. Bu masalani hal qilishda tarkibida oqsil miqdori ko'p, tannarxi arzon va yetishtirish oson bo'lgan donli ekin tritikaedan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tritikale uni asosan konditer mahsulotlarini (keks, pechene, vafl) ishlab chiqarishda tarkibiy qism bo‘lib xizmat qiladi. Non yopish uchun tritikale navlarining ko‘pchiligi afsuski yaroqsizdir, chunki kuchsiz kleykovinaga ega, ammo ular bug‘doy va boshqa boshqoli o‘simliklar uni bilan qorishmasida faol ishlatiladi. Tritikaedan non yopish uchun maxsus yondashuv kerakligi ta’kidlanadi. Olimlar oliy navli bug‘doy unini 70 % va tritikale unini 30 % miqdorda qo‘llashni tavsiya etishadi. Bunday qorishma natijasida olinadigan xamirturushsiz usul bilan yopiladigan tritikale-bug‘doy noni tayyor katta hajmi bilan farqlanadi va ajoyib ta’m va hidga ega [8]. Tritikale navlaridan oziq-ovqat sifatida foydalanishdan tashqari chorvachilikni sifatli ozuqa bilan ta’minlash maqsadida ham keng foydalanish mumkin.

Chorvachilikni rivojlantirishning asosiy negizini chorva mollarini sifatli va to‘yimli ozuqa bilan taminlash tashkil etadi. Shu boisdan keyingi yillarda respublikamiz qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida yangi islohatlar olib borilmoqda. Tritikale donining yirikligi, kraxmalga, oqsilga va uglevodga boyligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa respublikamizda keng tarqalgan yem-xashak o‘simliklari bilan birga ekilgan tritikale navlaridan to‘yimli va oqsilga boy ozuqa sifatida ishlatilish samarali natija beradi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** Tritikale bug‘doy-javdarning eng muhim xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan o‘simlik sifatida quyidagilarni aytish mumkin: bug‘doyning yuqori agrotexnik ko‘rsatkichlari, javdarning turli xil biotik va abiotik stresslarga chidamlilik va ozuqaviylik qiymati [7]. Tritikalening kelib chiqishi uning nomida aks etadi, bu *Triticum* va *Secale* avlodlari nomlarining qismlari qo‘shilishidan kelib chiqadi. Bug‘doy va javdar duragayi—ikki xil o‘simlik xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan o‘simlik hisoblanadi. Bug‘doy va javdarning dastlabki duragayini 1875-yilda Shotlandiya olimi Vilson yaratgan. 1881-yil Germaniyada Rimpau uning doimiy duragayini ajratib olgan. Keyingi yillarda oktaploid (56 xromosomal), geksaploid va oktaploid (42, 56 xromosomal) duragaylari yaratilgan [9].

Tajribalar Samarqand viloyati Payariq tumanida sug'oriladigan o'tloq-bo'z tuproqlar sharoitida o'tkazildi. Barcha tajribalarda tritikale navlari uch qaytariq qilib ekildi. Paykalchalarning umumiy yuzasi 64 m<sup>2</sup>. Ekish muddati kuzda-1-10-20-30 oktabrda, qator orasi 60 sm, ekish chuqurligi 3-4 sm. Tajribadagi tuproqning namlik darajasi cheklangan dala namlik sig'imi (CHDNS) 70% dan kam bo'lmagan holda ushlendi. Sug'orish meyorlari tuproqdagi namlikning taqchilligi asosida belgilanadi (600-700m<sup>3</sup>/ga).


Asosiy agrotexnik tadbirlar xo'jalikda qabul qilingan me'yorlar asosida o'tkazildi. Barcha fenologik kuzatuvlar va biometrik o'lchovlar Samarqand qishloq xo'jaligi institutida ishlab chiqilgan va tavsiya etilgan (2002) usullarga asoslandi. Dala tajribalarini o'tkazish, tuproq va o'simlik namunalarini olish va tahlil qilish, fenologik kuzatishlar O'zPITI [5] uslublar asosida amalga oshirildi. O'simliklarning bioekologik xususiyatlarini ontogeneza o'rganishda I.G.Serebryakov [6] uslublari qo'llaniladi. O'simliklarning mavsumiy rivojlanish maromoni o'rganish I.N. Beydeman [3] uslublarida bajarildi.

Tajribalarda urug'larning 1000 ta don massasi, urug'larning tinim davri, o'sish energiyasi, o'sish kuchi davlat standarti bo'yicha aniqlandi.

**NATIJARLAR.** Tadqiqotlarim Samarqand viloyatining Payariq tumanida sug'oriladigan o'tloq-bo'z tuproqlar sharoitida olib borildi. Samarqand viloyati sharoiti sharoitiga mos tritikale navlarini tanlab olib, moslanuvchanlikning fiziologik asoslarini tahlil qilish va ishlab chiqarishga tatbiq etish bo'yicha tajribalar o'tkazdik. Tritikale navlarining 1000dona don og'irligi bo'yicha olingan natijalar 1-rasmda keltirilgan.

Bundan ko'rinib turibdiki 1-oktabr sanasida ekilgan tritikale navlarida 1000 ta don massasi bo'yicha esa Farxod navi eng og'iri bo'lib, 43,0 g, Valentin navida esa bu 42,9 g. Yengili esa Tixon navida bo'lib 39,7 g ga ega ekan. Bunda Farxod navi Valentin navidan 0,1 g ga Tixon navidan esa 3,2 g ga og'ir ekani ma'lum bo'ldi. Valentin navi esa Farxod navidan 0,1 g ga yengil, Tixon navidan esa aksincha 3,2 g

ga og'ir ekanni aniqlandi. Yengili esa bu Tixon navida bo'lib, Farxod navidan 3,3 g, Valentin navidan esa 3,2 g ga yengilligini kuzatdik.



### 1-rasm. Tritikale navlarining 1000 dona don og'irligi, g

10-oktabr sanada ekilgan navlarda esa kursatkich quydagicha bo'lib, 1000 ta don massasining og'irligi Farxod navida 43,7 g, Valentin navida esa 43,4 g Tixon navida esa 40,9 g ekani ma'lum bo'ldi. Farxod navi eng og'iri bo'lib Valentin navidan 0,3 g, Tixon navidan esa 2,8 g og'ir ekan. Valentin navida esa Farxod navidan 0,3 g yengil, Tixon navidan esa 2,5 g og'ir ekanini aniqladik. 1000 don massasining vazni bo'yicha yengili bu Tixon navida ekan Farxod navidan 2,8 g, Valentin navidan esa 2,5 g yengil ekanini kuzatdik.

20-oktabr sanada ekilgan tritikale navlarida 1000 don massasining og'irligini o'rganganimizda Farxod navining 1000 dona don massasining og'irligi 46,5 g ni tashkil etdi, undan farqli ravishda Valentin navida 1000 dona don massasining og'irligi 45,7g ga teng bo'ldi, 1000 dona don massasining og'irligi qolgan navlarga qaraganda Tixonda yengil 42,4 g ni tashkil etdi. Farxod navida 1000 dona donning og'irligi Valentin navidan 0,8 g ga og'irroq, Tixon navidan esa 4,1 g og'irroq chiqdi. Valentin navida 1000 don massasi Farxod navidan 0,8 yengil, Tixon navidan 3,3 g ga og'ir chiqdi. Tixon navida 1000 dona don massasi Farxod navidan 4,1 g yengil ekan.

Valentin navidan esa 3,3 g ga kamroq chiqdi. Bundan ko‘rinib turibdiki Farxod navining donlari og‘ir, Tixon navining donlari esa aksincha yengil chiqdi.

30-oktabr sanasida ekilgan tritikale navlarini 1000 ta don massasini aniqlaganimizda quydagi natijalar olindi. Bunda Farxod navida 45,8 g, Valentin navida 44,9 g ekan Tixon navi 41,7 g ekanini aniqladik. Bunda Farxod navi og‘iri bo‘lib, Valentin navidan 0,9 g, Tixon navidan esa 4,1 g og‘ir chiqdi. Valentin navida Farxod navidan 0,9 g ga yengil. Tixon navidan 3,2g ga og‘ir ekanini bildik. Tixon navidagi 1000 ta don massasi eng yengili bo‘lib Farxod navidan 4,1 g, Valentin navidan esa 3,2 g ga yengil ekan.

Tritikale navlarining biometrik ko‘rsatkichlariga ekish muddatlariningta’siri bo‘yicha olingan ma’lumotlar 1- jadvalda ko‘rsatilgan.

1-jadval.

**Tritikale navlarining biometrik ko‘rsatkichlariga ekish muddatlariningta’siri**

№	Navlar	Ekish muddatlari	Boshqoq uzunligi (sm)	1-ta boshqoqdagi boshqochalar soni	1-ta boshqoqdagi donlar soni	1-ta boshqoqdagi donning og‘irligi (g)
1	Farxod	1.10	12,1	25,4	43,9	1,8
2	Valentin		11,9	29,1	56,9	2,3
3	Tixon		11,1	22,3	50,7	1,9
1	Farxod	10.10	12,5	27,6	45,4	2,0
2	Valentin		12,7	31,9	58,7	2,5
3	Tixon		11,4	24,7	52,6	2,1
1	Farxod	20.10	14,6	29,8	48,4	2,2
2	Valentin		13,9	33,9	62,8	2,8
3	Tixon		13,5	26,7	55,6	2,3
1	Farxod	30.10	13,7	28,4	47,1	2,1
2	Valentin		13,1	32,8	60,9	2,6
3	Tixon		12,9	25,6	53,7	2,2

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki tritikalening biometrik ko‘rsatkichlari aniqlandi. Unga ko‘ra 1-oktabrda ekilgan natijalari bir boshqoq balandligi Farxod navida 12,1 sm, Valentin navida bir boshqoq balandligi 11,9 sm, Tixon navida bir boshqoq balandligi 11,1 sm. Bitta boshqoqdagi boshqoqchalar soni navlarga mos holda turlicha bo‘lib, Farxod navida 24,5 ta, Valentin navida boshqoqchalar soni ko‘p bo‘lib 29,1 ta, Tixon navida qolgan navlarga nisbatan kam bo‘lib 22,3 ta boshqoqchalar borligi aniqlandi. Bitta boshqoqda donlar soni turlicha bo‘lib, Farxod navida 43,9 ta, Valentin navida undan ko‘p 56,9 ta ni, Tixon navida esa 50,7 ta ni tashkil qilgan. Bir boshqoqdagi donlar soni bo‘yicha eng kam Farxod navida bo‘lib Valentin navidan 13,0 ta ga, Tixon navidan esa 6,8 ta kam ekan. Bir boshqoqdagi donlar og‘irligi bo‘yicha Valentin navi ko‘p ekan Farxod navidan 13,0 ta, Tixon navidan esa 6,2 ta ga ko‘p ekani aniqlandi. Tixon navida esa o‘rtacha ko‘rsatkich bo‘lib Farxod navidan 6,8 ta ko‘p, Valentin navidan esa 6,2 ta ga kam ekanini kuzatdik. Bir boshqoqdagi donning og‘irligi Farxod navi eng yengili bo‘lib uning og‘irligi 1,8 g og‘iri esa Valentin navida bo‘lib, 2,3 g ga teng Tixon navida esa 1,9 g ekanini aniqlandi. Farxod navi Valentin navidan 0,5 g Tixon navidan esa 0,1 g ga yengil ekannini aniqladik. Valentin navi esa og‘iri bo‘lib Farxod navidan 0,5 g ga Tixon navidan esa 0,4 g ga og‘ir ekan. Bunda ham o‘rtacha ko‘rsatkich Tixon navida bo‘lib, Farxod navidan 0,1 g ga og‘ir, Valentin navidan esa 0,4 g ga yengil ekani ma‘lum bo‘ldi.

10-oktabrda ekilgan tajribalarimiz esa avvalgidan sezilarli darajada o‘zgarganini kuzatdik. Boshqoq uzunligi Farxod navida 12,5 sm, Valentin navida boshqoq uzunligi 12,7 sm ga yetgan, Tixon navida esa boshqoq uzunligi 11,4 sm ga teng ekan. Bitta boshqoqdagi boshqoqchalar soni Farxod navida 27,6 ta boshqoqcha bo‘lib, Valentin navida boshqoqchalar soni 31,9 ta boshqoqcha bor. Tixon navida boshqoqchalar kam bo‘lib, 24,7 ta boshqoqcha bor ekanligini aniqladik. Bitta boshqoqdagi donlar soni turli navlarda turlicha bo‘lib, Farxod navida 45,4 ta, Valentin navida esa ko‘pi bo‘lib 58,7 ta, Tixon navida esa 52,6 tani tashkil etganini kuzatdik. Farxod navida bir boshqoqda donlar soni bo‘yicha eng kam bo‘lib, Valentin navidan 13,3 ta, Tixon navidan esa 7,2 ta kam ekani ma‘lum bo‘ldi. Valentin navida bir

boshqda donlar soni bo'yicha eng ko'pi bo'lib, Farxod navidan 13,3 ta, Tixon navidan esa 6,1 ta ko'p ekan. Tixon navi esa Farxod navidan 7,2 ta ga ko'p, Valentin navidan esa 13,3 ta ga kam ekanini kuzatdik. Tadqiqotlarimizni davom ettirar ekanmiz bir boshqdagidagi donning og'irligini kuzatdik. Bunda Farxod navida 2,0 g ga, Valentin navida 2,5 g, Tixon navida esa 2,1 g ga yetdi. Farxod navi boshqdagidagi don og'irligi buyicha yengili bo'lib, Valentin navidan 0,5 g, Tixon navidan esa 0,1 g ga yengil ekan, bir boshqdagidagi donlar og'irligi bo'yicha Valentin navi og'ir ekanini kuzatdik Farxod navidan 0,5 g Tixon navidan 0,4 g o'g'ir ekan. Tixon navida esa Farxod navidan 0,1 g og'ir, Valentin navidan esa 0,4 g yengil ekanini aniqladik.

Tadqiqot natijalariga ko'ra tritikale navlaridan 20-oktabr kundagi Farxod navining bir boshq uzunligi 14,6 smni tashkil etadi, Valentinda undan farqli ravishda bir boshq balandligi 13,9 sm ga teng bo'ldi, Tixon navida bir boshq balandligi 13,5 sm ni tashkil etdi. Boshqalar uzunligi boyicha tritikale navlarida Farxod navining boshog'i baland ekan. Farxod navi Valentin navidan 0,7 sm ga baland ekan Tixon navidan esa 1,1 sm ga baland ekan. Valentin navining boshq balandligi Farxod navidan 0,7 sm qisqaroq ekan Tixon navidan esa 0,4 smga baland ekan. Tixon navining boshog'ining balandligi Farxod navidan 1,1 sm ga kalta ekan Valentin navidan esa 0,4 sm ga qisqaroq ekan. Tritikale navlarida bir boshqda boshqchalar Farxod navida 29,8 ta, Valentin navida 33,9 ta, Tixon navida 26,7 ta boshqchalar bor ekan. Tritikale navlarida bir boshqdagidagi donlar soni Farxod navida 48,4 ta, Valentin navida esa bir boshqda donlar soni 62,8 ta ni tashkil qiladi, Tixon navida esa bir boshqda donlar soni 55,6 ta ni hosil qildi. Bundan ko'rinib turibdiki 1 boshqda donlar soni ko'pligi bo'yicha Valentin birinchi o'rinda turar ekan. Boshog'i baland bolishiga qaramay Farxod navida esa eng kam ko'rsatkich kurinib turibdi. Farxod navining bir boshqdagidagi donlar soni Valentin navidan 14,4 ta kam, Tixon navidan esa 7,2 ta ga kam ekani kurinib turibdi. Valentin navida bir boshqdagidagi donlar soni Farxod navidan 14,4 ta ga ko'p, Tixon navidan esa 7,2 ta ga ko'p ekan. Tixon navida bir boshqdagidagi donlar soni Farxod navidan 7,2 ta ga ko'p, Valentin navidan esa 7,2 ta ga kam ekani aniqlandi. Tajribani davom ettirar ekanmiz. Bir

boshodagi donlar og'irligini aniqladik. Tritikale navlaridan Farxod navida bir boshodagi donlar og'irligi 2,2 g ni tashkil etdi. Valentin navida esa bir boshoda donlar og'irligi 2,8 gni ko'rdik undan farqli ravishda Tixon navida bir boshoda donlar og'irligi 2,3 g ni tashkil etadi. Bundan ko'rinib turibdiki bir boshodagi donlar og'irligi bo'yicha Valentin navida yuqori ko'rsatkichga ega, kamroq ko'rsatkich esa Farxod navida ekan. Valentin navining bir boshodagi donning og'irligi Farxod navidan 0,6 g ga og'ir ekan Tixon navidan 0,5 g ga og'ir chiqdi. Farxod navining bir boshodagi donning og'irligi Valentin navidan 0,6 g ga yengil, Tixon navidan esa bir boshodagi donning og'irligi 0,1 g ga yengil ekan. Tixon navining boshodagi og'irligi Farxod navidan 0,1 g ga og'irroq chiqdi. Valentin navidan esa aksincha 0,5 g ga yengilroq chiqdi.

Tajribalarimizni davom etirar ekanmiz oyning 30-oktabr sanasida ekilgan tritikale navlarning biometrik ko'rsatkichlari sekinlashganini kuzatdik. Bunda birinchi boshog uzunligini o'rgandik, Farxod navida bir boshog uzunligi 13,7 sm, Valentin navida esa 13,1 sm ekan Tixon navida bu ko'rsatkich 12,9 sm ga yetganini kuzatdik. Farxod navi boshog balandligi bo'yicha eng balandi xisoblanadi. Valentin navidan 0,6 sm ga, Tixon navidan esa 0,8 sm ga baland ekani aniqlandi. Valentin navi esa Farxod navidan 0,6 sm ga kaltaroq, Tixon navidan esa 0,2 sm ga baland ekanini kuzatdik. Tixon navida esa boshog'i sekin o'sganini kuzatdik, Valentin navidan 0,2 sm ga, Farxod navidan esa 0,8 sm ga boshog'i qisqa ekani aniqlandi. Bir boshodagi boshogchalar soni Farxod navida 28,4 ta Valentin navida 32,8 ta boshogchalar bor Tixon navida 25,6ta boshogcha borligi aniqlandi. Tajribalar davomida bir boshodagi donlar soni turlicha bo'lib Farxod navida 47,1 ta, Valentinda esa 60,9 ta, Tixon navida 53,7 ta ekanini aniqlandi. Farxod navida bir boshoglar doni qolgan navlarga qaraganda kam ekani ma'lum, Valentin navidan 13,8 ta, Tixon navidan 6,6 ta ga kam ekan. Boshodagi donlar soni bo'yicha Valentin yuqori o'rinda turar ekan, Farxod navidan 13,8 ta Tixon navidan 7,2 taga ko'p ekan, Tixon navi o'rtacha ko'rsatkichda bo'lib, Farxod navidan 6,6 ta ko'p, Valentin navidan esa 7,2 ta ga kam ekanini kuzatdik. 1 ta boshodagi donning og'irligini




aniqladik unga ko'ra Farxod navida 2,1 g, Valentin navida 2,6 g ga teng. Tixon 2,2 g chiqdi. Farxod navi bir boshodagi donlar og'irligi bo'yicha eng yengili sanaladi. Valentin navidan 0,5 g, Tixon navidan esa 0,1 g ga yengil ekanini kuzatdik. Bir boshodagi donlar og'irligi bo'yicha Valentinning donlari og'ir chiqdi. Farxod navidan 0,5 g, Tixon navidan 0,4 g ga og'irroq ekan. Tixon navida o'rtacha ko'rsatgich bo'lib, Farxod navidan 0,1 g ga og'ir, Valentin navidan aksincha 0,4 g yengil ekanini aniqladik.

Tritikale navlarining bo'yini balandligini aniqlaganimizda quydagi natijalarni aniqladik. 1-oktabr sanadagi tritikale navlarining bo'yining balandligi quydagicha bo'lib, Farxod navining bo'yining balandligi 94,6 sm. Valentin navining bo'yining balandligi eng balandi bo'lib, 104,6 sm ga yetgan. Tixon navining bo'y o'sishi bo'yicha eng sekini bo'lib 67,8 sm ga teng. Bunda Farxod navi Valentin navidan 10,0 sm ga sekin o'sgan Tixon navidan esa 26,8 sm ga tezroq o'sgani ma'lum bo'ldi. Valentin navi Farxod navidan 10,0 sm ga, Tixon navidan esa 36,8 sm ga tez o'sgan. Tixon navi esa Farxod navidan 26,8 sm, Valentin navidan esa 36,8 sm ga sekin o'sgan ekan.

10-oktabr sanadagi kuzatuvlarimizni davom etirar ekanmiz tritikale navlarining bo'yining balandligi bunda Farxod navining bo'yining balandligi 99,0 sm, Valentin navining balandligi esa 107,8 sm, Tixon navi bu sekin o'sgan nav bo'lib, bo'yining balandligi 70,9 sm ekani aniqlandi Farxod navi Valentin navidan 8,8 sm ga sekin o'sgan, Tixon navidan esa 28,1 sm ga tezroq o'sgani ma'lum bo'ldi. O'sish jadalligi tez bo'lgan nav bu Valentin navi bo'lib, Farxod navidan 8,8 sm, Tixon navidan esa 36,9 sm ga o'sish jadallashgan. O'sish jadalligi sekin bo'lgan nav bu Tixonda edi bu nav Farxod navidan 28,1 sm ga, Valentin navidan esa 36,9 sm ga sekin o'sgan.

20-oktabr sanadagi navlarning balandligi qolgan sanadagilarga qaraganda balandroq bo'lganini kuzatdik. Farxod navining bo'yining balandligi 105,7 sm ni tashkil etdi, Valentin navida esa bo'yining balandligi yuqori ko'rsatkichda bo'lib 113,5 sm ga yetganini ko'rdik, o'sish tezligi sekin bo'lgan esa Tixon navida bo'lib

bo'yining balandligi 76,4 sm tashkil etishini aniqladik. Farxod navining bo'yining balandligi Valentin navidan 7,8 sm ga o'sishi sekinroq ekan, Tixon navidan esa 29,3 sm ga baland chiqdi. Valentin navi Farxod navidan 7,8 sm ga baland Tixon navidan 37,1 sm ga baland chiqdi. O'sish jadalligi sekin bo'lgan nav Tixon navi bo'lib Farxod navidan 29,3 sm ga kalta, Valentin navidan esa 37,1 sm ga kaltaroq ekan.



## 2-rasm. Tritikale navlarining o'sish davomiyligiga ekish muddatlarining ta'siri, sm.

30-oktabr kundagi natijalar Farxod navining bo'yining balandligi 102,6 sm, Valentin navining bo'yining balandligi 110,1 sm, Tixon navida bu ko'rsatkich sekinlashadi. 73,4 sm ga yetadi. Farxod navi Valentin navidan 7,5 sm ga sekin o'sgan. Tixon navidan esa 29,2 sm ga tez o'sgan. Valentin navida bu ko'rsatkich ancha o'sadi. Farxod navidan 7,5 sm, Tixon navidan 36,7 sm ga tez o'sganini aniqladik. Sekin o'sgan nav bu Tixon bo'lib, Farxod navidan 29,2 sm, Valentin navidan esa 36,7 sm ga sekin o'sgan.

**MUHOKAMA.** Tritikale navlarining donida lizin, triptafan singari almashinmaydigan aminokislotalarga boy [1]. Tritikalening asosiy ishlab chiqaruvchilari Polsha, Germaniya, Belarus, Fransiya va Rossiyadir Tritikale – stress omillarga chidamli ekin bo'lib, kasalliklarga va yuqori haroratga chidamli, noqulay tuproq va iqlimga tez moslashuvchan ekindir [8]. Shuning uchun abiotik stresslar tufayli ko'pchilik ekinlar uchun noqulay hisoblangan joylarda ekishni tavsiya qilinadi [4].

Tritikalening hozirgi navlari don hosildorligi va yashil massa bo'yicha javdar, arpa, suli va bug'doyning qimmatli navlari bilan bemaolol raqobatlasha oladi [7]. Shu bilan bir vaqtda tritikale yuqori ozuqaviy ko'rsatkichlarga ega va tarkibidagi oqsilda ko'p miqdorda lizin mavjud; unimsiz, kislotali yoki suv bosgan tuproqlarda yetishtirilishi mumkin; noqulay qishlashni va bahor-yoz mavsumlarini yaxshi o'tiradi; ko'pgina zamburug'larga chidamli; boshqa donli ekinlarga qaraganda kamchiqimli va resurstejamkor texnologiyalarga yaxshiroq mos keladi [9]. E'tiborli jihati tritikale hosildorligi ozuqaviy qiymati bo'yicha dunyoning ko'p agrar hududlarida oldindan yetishtirilib kelinayotgan ekinlardan o'tib ketdi, iqlim, tuproqning noqulay sharoitlari va kasalliklariga chidamlilik bo'yicha bug'doyni ortda qoldirdi [2].

**XULOSA.** Samarqand viloyati sharoitida ekilgan tritikale navlari yigirmanchi oktabrda ekilganlarini biometrik ko'rsatkichlari yuqori natija berdi. Tritikale navlari ichida Valentin navi donining yirikligi, yashil massasi ko'pligi bilan ham boshqa navlardan farq qilishi aniqladi. Shuningdek, Samarqand viloyati Payariq tumani sharoitida yetishtirilgan tritikale navlari bo'yining balandligi ekish muddatiga bog'liq holda 67,8 sm dan 113,5 sm gacha bo'lishi aniqlandi. 20-oktyabrda ekilgan tritikale boshqa muddatlarda ekilgan variantlarga nisbatan balandroq bo'lishi kuzatildi. Tritikale navlarining o'sish sur'ati naychalash fazasida eng jadal (umumiy o'sishining 36,1-42,2%) bo'lishi aniqlandi. Umuman olganda ushbu hududda Farxod, Valentin va Tixon navlaridan yuqori hosil olish uchun barcha agrotexnik tadbirlarni to'g'ri yo'lga qo'yib, oktabr oyining ikkinchi o'n kunligida ekishga tavsiya etiladi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Atabayeva X.N. Xudayqulov J.B. O'simlikshunoslik. -T .: «Fan va texnologiya», 2018, 408 bet.
2. Баженов, М. С. Изучение внутрисортного озимой тритикале по устойчивости к прорастанию зерна в колосе Тритикале: мат-лы междунар-й науч.-практич.конф. «Тритикале и его роль в условиях нарастания аридности климата» и секции тритикале отделения растениеводства РАСХН. - Ростов - н/Д, 2012.-С. 16-20.
3. Бейдеман И.Н.Методика изучения фенологии растений и растительных сообществ. - Новосибирск: Наука, 1974. -153с.
4. Гончаров С.В. Европейский семенной рынок тритикале // Тритикале. Материалы научно- практич. конференции —Тритикале и его роль в условиях нарастания аридности климата. – Ростов н/Д, 2012. – С. 141-145.
5. Дала тажрибаларини ўтказиш услублари– Тошкент, ЎзПИТИ,2007.-256 б.
6. Серебряков И.Г. О методе изучения ритмики сезонного развития растений в геоботанических стационарах // Доклады совещаний по стацио- нарным геоботаническим исследованиям.М.-Л. Изд.АН СССР, 1954.- С.145-159.
7. Кутровский В.Н., Инновационные сорта зерновых культур и их роль в развитии зерновой отрасли Центрального региона России // Зерновое хозяйство России. 2011. - № 4 (16). – С. 13-18.
8. Godfray, H.C.J., J.R. Beddington, I.R. Crute, L. Haddad, D. Lawrence, J.F. Muir, J. Pretty, S. Robinson,S.M. Thomas, and C. Toulmin. 2010. Food security: the challenge of feeding 9 billion people. science. 327:812-818.
9. Xalilov N. Oripov R. O'simlikshunoslik. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. ~ 384 b.